

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI INKLIZIV TA'LIMGA JALB ETISH

Mardiyeva Shaxnoza Amirovna, SamDCHTI “Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat” kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

INVOLVEMENT OF STUDENTS IN INCLUSIVE EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Mardieva Shakhnoza Amirovna, Associate Professor of the Department of “Pedagogy, Psychology and Physical Culture” of the SamDCHTI, Doctor of Philosophy in Psychology (PhD)

ВОВЛЕЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ В ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Мардиева Шахноза Амировна, доцент кафедры “Педагогика, психология и физическая культура” СамГИИЯ, доктор философии по психологии (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lismuassasalari talabalarida inklyuziv ta'limga tashkil etish, inklyuziv ta'limga mazmun-mohiyati ochib berilgan. Alovida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limga tashkil etish va barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'limga ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'limga muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlash haqidagi ma'lumotlar batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'limga, imkoniyati cheklangan insonlar, surdo, tiflo, logopediya, oligofreniya, pedagogika va psixologiya.

Abstract: This article describes the organization of inclusive education for students of higher educational institutions, the content and essence of inclusive education. Information on the creation of inclusive education for children with special educational needs and ensuring equal rights in educational institutions for all students, taking into account differences in special educational needs and individual capabilities, is covered in detail.

Keywords: inclusive education, people with disabilities, deafness, dyslexia, speech therapist, pedagogy and psychology of oligophrenia.

Аннотация: В данной статье описывается организация инклюзивного образования студентов высших учебных заведений, содержание и сущность инклюзивного образования. Подробно освещена информация о создании инклюзивного образования для детей с особыми образовательными потребностями и обеспечении равных прав в образовательных учреждениях для всех обучающихся с учетом различий в особых образовательных потребностях и индивидуальных возможностях.

Ключевые слова: инклюзивное образование, люди с ограниченными возможностями, глухота, дислексия, логопед, педагогика и психология олигофрении.



[https://orcid.org/0446-0202-
5246-046x](https://orcid.org/0446-0202-5246-046x)
e-mail:
[mardihevashaxnoza19820111
@gmail.com](mailto:mardihevashaxnoza19820111@gmail.com)

KIRISH. Bugungi kunda, jahon ta'lifi amaliyotida ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga moslashuvchan o'quv muhitini yaratish, variativ o'quv dasturlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. YUNESKOning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan dasturlari alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar va kattalar uchun xavfsiz va qulay ta'limni ta'minlashga qaratilgan me'yorlar, standartlar hamda intellektual hamkorlikni modernizatsiyalashga yo'naltirilmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda 700 mingdan ortiq nogironligi bo'lgan shaxslar istiqomat qiladi, ularning 100 mingdan ortig'i 16 yoshgacha bo'lgan shaxslardir (Respublika Oliy Majlisi Senati ma'lumotlari bo'yicha). So'nggi yillarda respublikamizda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va majburiyatlarini mustahkamlashga qaratilgan normativ-huquqiy baza sohasida davlat darajasida qator ijobjiy islohotlar amalga oshirildi. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish va barcha o'quvchi va talabalar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlarini va individual imkoniyatlarning farqlilagini inobatga oлган holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlash haqidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan.

ADABIYOTLAR

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida "Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiyligi ta'lim loyihasi" asosida ish yuritib kelinmoqda. Jumladan inklyuziv ta'lim, ya'ni imkoniyati cheklangan insonlar bilan mamlakatimiz olimlaridan F.U.Qodirova, D.A.Pulatovlar o'z tadqiqotlarida inklyuziv ta'lim sharoitida eshitishida, ko'rshida, aqliy va psixik rivojlanishida, nutqida, tayanch-harakat a'zolarida, autistik sohasida muammolari bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan davr talabiga mos pedagogik texnologiyalar haqida ma'lumotlarni yoritgan[1]. Suleymenova R.A. fikricha "Agarda nogiron bolalarning o'z jamoalari va butun jamiyat ijtimoiy hayotiga jalb etish imkoniyatlari rad etilsa ularning imkoniyatlari keskin kamayadi", degan fikrni bildiradi.

Taniqli psixolog olim L.S.Vigotskiy (1986-1934) inklyuziv ta'lim asoschisi bo'lib, uning

nazariyasiga ko'ra bolalar ijtimoiy muhitda eng samarali bilim olishadi. Oliy aqliy funksiyalarining rivojlanishi ijtimoiy hamkorlikdan boshlanadi, keyin shaxs bo'lib shakllanadi, deb ta'kidlagan. Bugunda nogironligi bor shaxslar nafaqat umumta'lim maktablarida, balki oily ta'lim tizimida ham tahsil olmoqdalar.

Imkoniyati cheklangan insonlar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga reja asosida joriy etilayotgan inklyuziv ta'lim strategiyasi o'qishning uzluksiz va muttasilligini ta'minlaydi. Oila – bolalar bog'chasi – maktab – kasb-hunar kolleji – ish bilan ta'minlash – ushbu tizim kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarini umumta'lim muassasalarini va oliy o'quv yurtlariga bemalol, xavfsiramasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR. O'zbekistonda nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, hayot sifatini yaxshilash tizimini takomillashtirish, ularga ta'lim olish va ishga joylashishda har tomonlama ko'maklashish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilib, xalqimizga xos bo'lgan mehr-shafqat hamda ezgulik tuyg'ularini hisobga oлган holda nogironlarning muhim ehtiyoj va talablariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

"Inklyuzivlik" inglizcha so'z bo'lib, *inclusive* – *qo'shish, birlashtirish* ma'nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan qo'shib birgalikda o'qitish jarayonini ifodalaydi. Inklyuziv ta'lim – o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga oлган holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir[4].

Shuningdek, inklyuziv ta'lim davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarning rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'lim jismoniy va psixik imkoniyatlari cheklangan o'quvchilarni sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda o'qitishni anglatadi. Inklyuziv ta'lim bir qator muhim tamoyillarga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Jumladan,

- inson qadri uning layoqatlari va yutuqlariga bog‘liq emasligi prinsipi;
- har bir shaxsning his qilish va o‘ylash layoqatiga egaligi prinsipi;
- har bir shaxsning muloqot qilish va tinglash huquqiga egaligi prinsipi;
- har bir shaxsning bir-biriga kerakliligi prinsipi;
- shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining aniq hamkorlik asosida amalga oshirilishi prinsipi;
- har bir o‘quvchining o‘z tengdoshlarining qo‘llab-quvvatlashi va do‘stona munosabatlariga ehtiyojmandligi prinsipi;
- turli-tumanlik o‘quvchi hayotining barcha jahbalarini rivojlantirishni ta’minlashi zarurligi prinsipi kabilar.

Inklyuziv ta’limning maqsadi – alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘sizsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli ta’lim berishni ta’minlashdan iborat.

Inklyuziv ta’limning vazifalari quyidagilardan iborat:

- rivojlanishning turli imkoniyatlariiga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

- jamoatchilik hamda ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar muammolariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish;

- ta’lim jarayonida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

- barcha o‘quvchilar uchun davlat ta’lim standartlariga muvofiq maktabgacha, umumiy o‘rta, kasb-hunar va oliy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

- o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko‘nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta’lim-tarbiya

berish, pedagogik texnologiyalar, ta’lim-tarbiya metod va vositalarini qo‘llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

Inklyuziv ta’lim jarayonida alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan o‘quvchilar sog‘lom bolalar bilan birga bir maktabda, sinfda o‘qitiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar maktabga qadam qo‘ygan kunlaridan boshlab alohida qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘ladilar. Bunday qo‘llab-quvvatlash ularning butun hayotlari davomida zarur hisoblanadi. Shuning uchun ham maktab ta’limining dastlabki bo‘g‘inlaridan boshlab, bunday o‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishlari uchun qulay shart-sharoit yaratish talab etiladi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar bilan tashkil etiladigan ta’lim jarayoni inklyuziv ta’lim shakllarini aniqlash va uni umumiy ta’lim jarayoni bilan integratsiyalashni talab etmoqda. Bunday integratsiya ularning o‘zlariga xos bo‘lgan ta’limiy ehtiyojlariga mos kelishi lozim. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ta’lim muassasasida o‘qishni davom ettirishlari va faqatgina o‘zları kabi imkoniyati cheklanganlar muhitida bo‘lishlari ularning rivojlanishlari, ijtimoiylashishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Inklyuziv ta’lim nafaqat umumta’lim maktablarida, balki oliy ta’lim muassasalarida ham tashkil qilinganini ko‘rshimiz mumkin.

Oliy ta’lim va uzuksiz ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq uzuksiz ta’limni davom ettirish maqsadida, Oliy ta’lim muassasalariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘srimcha davlat granti kvotalari asosida o‘qishga qabul qilinishi muhim qadam bo‘ldi. Birgina Navoiy davlat pedagogika institutiga 327 nafar nogironligi bor talabalar qabul qilindi. Shundan 17 nafari magistraturada, 3 nafari esa doktoranturada tahsil olmoqda [3].

Oliy ta’lim tizimida mutaxassislik (magistratura) fanlarini o‘qitishda ko‘zi ojiz talabalarni o‘quv yili boshida professor-o‘qituvchilar birmuncha qiyinchiliklarni boshidan kechirsa-da, kredit-modul tizimi ancha qulaylik tug‘dirishi va mustaqil ta’lim, muloqot natijasida talabalar boshqa talabalardan o‘zlashtirish jihatidan orqada qolmasliklarini ko‘rshimiz mumkin. Lekin o‘quv-tarbiya jarayonida ularning to‘laqonli bilim olishlariga doir ba’zi bir muammolar ham qalqib chiqmoqda. Chunonchi, binolarda nogironlar va

nogironlarning o'tishini osonlashtiradigan o'tish yo'laklari maxsus qurilmalar, liftlar, panduslar mavjud emas. Shunigdek, nogironligi bo'lgan shaxslarga axborot texnologiyalaridan qulay formatlarda, imo-ishora tilida va boshqa muqobil aloqa shakllarida (imo-ishora tilidan tarjimalar, ovozli va vizual signallar va boshqalar) foydalanish imkoniyatlarini yaratish lozimligi namoyon bo'lmoqda. Ayrim hollarda ularning brayl usulida dars jarayonida ma'ruzalarni yozib borishlari boshqalarni chalg'itishga sabab bo'lmoqda.

Binobarin, malakali kadrlar ham mavjud emas. Jumladan, surdo-tarjimonlar, ko'zi ojizlar uchun Brayl alifbosi darsliklari yetishmaydi yoki zamon talablariga qisman javob beradi, xolos. Ayniqsa, o'qishda va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun o'qituvchi va repetitorlarga ehtiyoj sezilmoqda. Mazkur muammolar o'zining ijtimoiy-iqtisodiy yechimini talab qiladi va kutmoqda. Bu muammolarni nafaqat budget tashkilotlari ishtirokida, balki Vatanimiz, xalqimiz ravnaqiga o'z mablag'i, aql-zakovati yo'lida sarflayotgan homiylar (tadbirkorlar) ham hal etishi kerak. Biroq talaba magistrlar o'rtasidagi o'zaro hurmat, yaqinlik, tarbiyaning uzlusiz olib borilishi bu muammoni bartaraf etmoqda. Bizning fikrimizcha, bu vazifani amalga oshirishning eng maqbul va samarali yo'nalihi aynan inklyuziv ta'limdir.

XULOSA qilib ta'kidlaganda, oliy ta'lim tizimida maxsus ehtiyojli talabalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini

ta'minlash, ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish lozim. Ustuvor yo'naliishlarini amalga oshirish doirasida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishning shakl va mexanizmlarini yangilash ta'lim texnologiyasi va kredit-modul tizimini takomillashtirish zarur. Jumladan, ushbu sohadagi munosabatlarni ta'lim amaliyoti ehtiyojlaridan kelib chiqib, zamon talabi asosida tegishli o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish, tartibga solish, xalqaro tajribalardan unumli foydalanish zarur deb bilamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika//Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti. Chirchiq nashriyoti. 2022.
2. Педагогик атамалар луғати. – Т.: Фан, 2008. – Б.47.
3. M. Asadov, R.N.Tolibov. Oliy ta'lim tizimida inklyuziv ta'lim// Modern trends of teaching in the context of innovative and digital technologies in higher education: prospects, problems and solutions. International scientific and practical conference, November 29, 2024.
4. Ubaydullayev R.A. O'zbekiston yoshlari: ijtimoiy qiyofa. T.: 2008. 8-bet.
5. Internet ma'lumotlari. <https://sud.uz/1001-2/>
6. 2018-yil 2-iyundagi 417-son qaror. Oliy ta'lim muassasalariga nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'shimcha davlat granti kvotalari asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida.

